



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Тошкентнинг шундоққина биқинида генерал Черняев қўшинларига яқин ерда айғоқчилар отиб ўлдиришди [6,122-123-б.].

Хуллас,Туркистон ўлкасининг таназулида ўзаро тахт талашувлар,қирғинлар, алғов-далғовлар элнинг ўсишига, жамиятнинг олға қараб ривожланишига тўсқинлик қилди. Абдулла Қодирий “Ўтган кунлар” асари учун қатағон бўлгани каби Тўлаган Қосимбековнинг “Синган қилич”асари ҳам тақиқларга дучор бўлди. Бу бежиз эмас эди, албатта, чунки мазкур икки асарда Марказий Осиё халқларининг XVIII аср охири XIX аср бошларидаги ўтмиши реал воқеалар, тарихий шахслар мисолида атрофлича бадий талқин қилинган. Бу икки асарни қиёсан ўрганиш минтақадаги туркий халқларнинг тарихдан сабоқ чиқаришларига, ўзаро бирдамлик, якдиллик, ҳамкорликда ривожланишига ва худудда тинчликни барқарор бўлишида муҳим манба бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Асқаров А.Ўзбек халқининг келиб чиқиши.Тошкент,“Ўзбекистон”нашри 2015 йил,- 640 Б.
- 2.Ибрат.Фарғона тарихи.Тошкент, “Камалак”нашри, 1991 йил.-355 Б.
- 3.Муродов Ғайрат.Тарихий романнинг муштараклик ва ўзига хосликлар уй-унлиги муаммолари.Тошкент:2018 й. -106 Б
- 4.Махсумхонов С.Юрт фожиаси ҳақидаги роман./Вестник ОшГУ№4,2004 г.стр:134-136.
- 5.Қодирий А.Ўтган кунлар.Тошкент,Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1994 йил, -642Б.
- 6.Қосимбеков Т.Синган қилич.Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980 йил, 372-Б.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/BIIV1865

TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI

Turakulova Okila Amirkulovna

*Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti
universiteti*

shahrizodf@mail.ru

ORCID: 0000-0002-7783-6418

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida badiiy asarlarni anglash orqali talabalarning milliy o'zligini (identiklik) rivojlantirishning metodik jihatlari, o'ziga xoslik, milliy iftixorni shakllantirishning jahon, milliy va mintaqaviy darajadagi omillari, ta'lim muhitining referentlik darajasini aks ettiruvchi mezonlar haqida ayrim mulohazalar keltirilgan.



Kalit so'zlar: milliy identiklik, ta'lim jarayoni, hulq-atvor komponenti, kognitivlik komponenti, emotsional-hissiy component, a) milliy tuyg'u, iftixor, kayfiyat, milliy xarakterni, hulq-atvor komponenti, milliy qadriyat, talabalar.

Аннотация: В данной статье представлены некоторые размышления о методических аспектах развития национальной идентичности студентов посредством осмысления художественных произведений в образовательном процессе, факторах формирования самобытности и национальной гордости на глобальном, национальном и региональном уровнях, а также о критериях, отражающих степень референтности образовательной среды.

Ключевые слова: национальная идентичность, образовательный процесс, поведенческий компонент, когнитивный компонент, эмоционально-чувственный компонент, а) национальное чувство, гордость, настроение, национальный характер, поведенческий компонент, национальная ценность, студенты.

Annotation: This article presents reflections on the methodological aspects of developing students' national identity through the analysis of literary works in the educational process, factors influencing the formation of cultural distinctiveness and national pride at global, national, and regional levels, as well as criteria reflecting the degree of relevance of the educational environment.

Keywords: national identity, educational process, behavioral component, cognitive component, emotional-sensory component, a) national sentiment, pride, mood, national character, behavioral component, national value, students.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayoni tobora jadallashayotgan bir davrda yosh avlod, ayniqsa ertamiz egalari, bo'lajak kadrlar- talabalarda adabiyot darslarida milliy identiklikni rivojlantirish, tarbiyaviy xususiyatlarini keng ochib berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunda xalqimizning tarbiyaviy an'analari asosida talabalarda milliy qadriyatlarini shakllantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, tajribalarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik tajribalar o'tkazish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida jahon talablariga javob beruvchi yoshlar qilib tarbiyalash ishi maktablarda tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanmalari tayyorlashning yangicha uslublarini talab etmoqda. O'qituvchilar aynan psixologik bilimlar asoslarinigina emas, balki, o'z atrofida ro'y berayotgan islohotlarga xolis baho berish, o'zi va o'zgalar ruhiyati, sir-asrorlariga befarq bo'lmaslik, o'quvchilar ruhiyatini hisobga olishga yordam beradi. Bu vazifalar, birinchi navbatda, kelajakning bunyodkorlari bo'lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo'lib o'z yurti va xalqiga sidqidildan mehnat qilish, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o'rgatishni nazarda tutadi. [1.23]

Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o'z tariximizdan juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Forobiy "Fozil odamlar shahri" asaridagi g'oyani yodga olaylik. Unga ko'ra, jamiyatning har bir fuqarosi mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qa'iy nazar, fozil kishidir. Fozil inson o'z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, ularga amal qiladi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda, Vatani uchun jon fido qiladi. Ota-ona va farzand, ustozu-shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi. Avvalo, bunday fikr yuritishning o'zi bobolarning ma'naviy darajasi, ular ruhiyati, tafakkuri naqadar



yuksak bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, bizning barkamol avlodni tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma'naviy asos bor. Millatimiz urf-odatlaridagi, qonidagi ma'rifat tushunchasi, ilm va bilimga intilish xislati bir necha ming yillar davomida shakllangan, sayqal topgan.

“O'zlikni anglash” – “identlik (ayniyat)” tushunchasi ma'naviyat tarkibiga kiruvchi kategoriya sifatida namoyon bo'ladi va inson ma'naviy olamini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zlikni anglashning shakllanish jarayoni va omillari Sharq hamda G'arb allomalari tomonidan har taraflama o'rganilgan. Sharq allomalaridan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Nasafiy, Navoiy, Mirzo Bobur va boshqalar o'zlikni anglashning ruhiy, botiniy jihatlarini, inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, olam va odam munosabatini bilish asosi ekani kabi masalalarga e'tibor qaratganlar. G'arb allomalaridan Suqrot, F.Bekon, T.Gobbs, R.Dekart, F.Nitsshe, Z.Freyd, E.Erikson, V.Gegel, I.Kant, N.Berdyayev va boshqalar o'zlikni anglashning zohiriy jihatlarini, uni ijtimoiy borliq, makon va zamonning faol ijodkorligi omili sifatida o'rganganlar. Jumladan, yangi davr ijtimoiy- siyosiy ta'limotlarida xususan, Dekart qarashlarida o'zlikni anglash “cogito ergo sum” tushunchasi orqali ifodalangan. Dekart “Agar men har qanday narsa va hodisa haqida fikr yuritadigan bo'lsam, men o'zimni subyekt sifatida mavjudligimni his qilaman” degan. Mazkur fikrdan o'zlikni anglash faqat individual hodisa ekan degan xulosa kelib chiqmaydi balki, jamoaviy yoki ma'lum bir xalqning faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. [2.23/055]

Milliy o'zlikni anglash, adabiyot darslarining mohiyatiga singdirilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Shu asnoda Shukur Xolmirzayevning "O'zbek xarakteri" hikoyasida keltirilgan milliy xarakter bilan bog'liq jihatlarini yodga olaylik. Asarda keltirilishicha "Ishonasizmi, avtobusga o'tirganimdan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig'lar edim: ana shu o'zbeklarning bag'ri kengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe'li tor bo'lmagan, ajib-afsonaviy mehmondo'stligi instinkt kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig'lardim." degan so'zlari milliy xarakter, milliy mehmondo'stlik kabi tuyg'ularni o'quvchi qalbiga singishi, uni his qilishi, vatanparvarlik va milliy iftixor hissi bilan bir qatorda, qat'iyat, mas'uliyat, burchga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish bugungi adabiy ta'limning bosh maqsadidir.[3.446]

Shu asnoda «milliy identiklik»ni uchta asosiy jihatga ajratib ko'rsatish mumkin. a) emotsional-hissiy komponent; b) hulq-atvor komponenti; v) kognitivlik komponenti. O'z navbatida, emotsional-hissiy komponent: a) milliy tuyg'u; b) iftixor; v) kayfiyat; g) milliy xarakterni; hulq-atvor komponenti: a) fuqarolik pozitsiyasini ko'rsatish; b) o'zi mansub bo'lgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash; v) ijtimoiy munosabatlar birligini taklif etish; kognitivlik komponenti: a) milliy ong; b) milliy o'zlikni anglash (rasonallik) omillari asosida. [4.93]

Oliy ta'lim sharoitida milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichining ajralmas qismidir.



Talabalarning o'ziga xosligini shakllantirish jahon, milliy va mintaqaviy darajadagi omillar bilan bog'liq.

Milliy o'ziga xoslikni shakllantirishda talabalarning milliy o'zlikni anglash kompetensiyalari muhim rol o'ynaydi, bu shaxsning o'ziga xosligini ifoda etish vositasi bo'lib, unga o'z shaxsiyatining yaratuvchisi bo'lishiga imkon beradi, ya'ni turli madaniy modellar ta'siri ostida o'zini va atrofidagi dunyoni faol va konstruktiv ravishda o'zgartiradi. Bu murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, shaxsni turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga va atrofdagi dunyo bilan samarali o'zaro munosabatlarga kirishuviga yordam beradi.

O'zlikni anglash kompetensiyasining maqsadi shaxs jamiyatda o'zini o'zi boshqarishga intilishidir, bu esa ta'lim muhitining referentlik masalasini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ta'lim muhitining referentlik darajasini aks ettiruvchi asosiy mezonlar quyidagilar:

- talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantiradigan ta'lim va tarbiya texnologiyalaridan foydalanish;

- guruhda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish;

- talabalarning ijtimoiy faolligini rag'batlantiradigan tadbirlarni tashkil etish;

- pedagogik hamkorlikning demokratik uslubi asosida talabaning fikrini hisobga olish, mustaqil tanlov qilish imkoniyatini berish;

- talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish va o'z taqdirini o'zi belgilashini turli xil tadbirlar, shu jumladan loyiha va turli ma'naviy faoliyatlar orqali qo'llab-quvvatlash.

Ushbu mezon asosida talabalarning muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish motivatsiyasini oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqish muhim sanaladi. Ta'lim muassasasining ko'rgazma zallarining ish jadvaliga o'zgartirishlar kiritish, reklama plakatlar dizayni va ularning soni, ko'rgazmalarga tashrif buyurish uchun bonuslar joriy etish zarur.

Ushbu chora-tadbirlar talabalarning qiziqishini uyg'otadi va mas'uliyat va ijtimoiy hayotga daxldorlik hissi ortadi, natijada talabalarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fanlarda mustaqilligi ta'minlanadi. Ta'lim muassasasi ichida va tashqarisida o'tkaziladigan turli tadbirlar ko'payadi.

Mana shunday Loyiha tadqiqotlardan "Shaharni bo'yang," "Mening yurtim", "Yoshlar e'tirofi otkritkasi", "Bolalar hunarmandchiligi" nomli kichik loyihalarni tashkil etish maqdasga muvofiq.

Bunday loyihalar talabalarda:

milliy o'zlik, milliy tuyg'u, iftixor, kayfiyat, milliy xarakterni, hulq-atvorni shakllantiradi;

- talabani bitirgandan keyin professional va ijtimoiy-madaniy hamjamiyatda ijtimoiylashuv jarayonini osonlashtiradi;

- kasbiy fanlarni o'qitishda ijodiy yo'naltirilgan samaradorlikni oshiradi;

- ijodiy kasbiy mas'uliyat va intilishni oshiradi;

- ijtimoiy-madaniy o'z-o'zini angelaydi;



- insonning uyg'un kamol topishi va millatlararo aloqalarni mustahkamlaydi;
- madaniy boyliklarni asrab-avaylash va ko'paytirish bilan bog'liq tuyg'ulari takomillashadi.

Milliy o'zlikni anglash barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, dini, urf-odatlarini hurmat qilish, asrab-avaylash, rivojlantirishga ko'maklashadi va umume'tirof etilgan qoidalarga tayanadi. Hozirgi zamon tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan bir sharoitda o'zbek xalqi o'zini anglashi, eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug'vor maqsadlar bilan yashash, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy iftixor hissi bilan bir qatorda, qat'iyat, mas'uliyat, burchga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish, yosh avlodni e'tiqodini mustahkam barkamol inson etib tarbiyalash – Yangi O'zbekiston taraqqiyot talabi, hayotiy ehtiyojdir. "Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning "O'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, avvalo, o'zini o'zgartirishi lozim. Buning uchun esa, aniq maqsad, tolmas iroda va :miy izlanish kerak" degan hikmatli iborasi bu borada hammamiz uchun asosiy mezon bo'lishi lozim"¹⁸⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Daniyarov Sh. Talabalarda milliy identiklikni etnopedagogika vositasida rivojlantirish. Innovative academy research support center open access journal.2023.b.92
2. Do'styorova S. Milliy o'zlikni anglashning inson ma'naviy dunyosini rivojlanishidagi ahamiyati. 23(055)
3. Холмирзаев Ш. Сайланма. Уч жилдлик. II жилд. -Toshkent: Шарқ, 2005. – 464 б.
4. Daniyarov Sh.Talabalarda milliy identiklikni etnopedagogika vositasida rivojlantirish. Innovative academy research support center open access journal.2023.b.93
5. Tuychieva M. U. (2023). Pedagogical, methodological and psychological aspects of attracting teenagers to fiction. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(11), 28-39.
6. Tuychieva M. U. (2025). Research on logical thinking in literary education. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 5(3), 27-33.
7. Tuychieva M. (2025). The importance of age-specific characteristics in the process of guiding thinking in literary education. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 5(4), 18-22.

¹⁸⁴ Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. 6-9 б.



<i>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</i>	
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	
<i>Р.Нуёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
<i>Р.Нуёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ “СИНГАН ҚИЛИЧ” АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQUIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	852
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING “SEHRLI TAYOQCHASI”: FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI</i>	862
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5–6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

